

G'YOSIDDIN NAQQOSHNING "XITOIY SAFARNOMA" SIDA MO'G'ULISTONDAGI SIYOSIY VAZIYAT TASVIRI

Jumayev G'ayratjon Ismatullo o'g'li

Stajor-tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV-XV asrlarda Temuriylar davlatining Xitoyga diplomatik-elchilik munosabatlarini yaxshilash uchun yuborilgan elchilaridan biri tomonidan yozilgan kundalikda bayon etilgan tarixiy jarayonlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada Temuriy hukmdor Shohrux Mirzo davrida Mo'g'uliston hukmdori Vaysxon va Xitoy imperatori Yongle bilan bog'liq tarixiy voqealar hamda Safarnomada bayon etilgan Mo'g'uliston siyosiy vaziyat tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Xitoy, Tug'luq Temur, Amir Temur, Shuhrux Mirzo, Vaysxon, Shermuhammadxon, G'iyosiddin Naqqosh, Amir Po'lodchi.

В «ДНЕВНИКЕ ПУТЕШЕСТВИЯ» ГИЯЗИДДИНА НАККОША ОПИСЫВАЕТСЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В МОНГОЛИИ

Жумаев Гайратжон Исматулло ўғли

Стажер-исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

Аннотация. В данной статье описываются исторические процессы, описанные в дневнике одного из послов государства Тимуридов, отправленного в Китай для улучшения дипломатических отношений в XIV-XV веках. Также в статье анализируются исторические события, связанные с монгольским правителем Вайсханом и китайским императором Ёнглэ во времена тимуридского правителя Шахруха Мирзы, а также политическая ситуация Монголии, описанная в «Книге путешествий».

Ключевые слова: Китай, Туглук Темур, Амир Темур, Шухрух Мирза, Вайс Хан, Шермухаммад Хан, Гиязиддин Наккош, Амир Поладчи.

THE DESCRIPTION OF THE POLITICAL SITUATION IN MONGOLIA IN GHIYAZIDDIN NAQQOSH'S "TRAVEL BOOK"

Jumayev Gayratjon Ismatullo o'g'li

Intern-researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

Annotation. This article describes the historical processes described in the diary of one of the ambassadors of the Timurid state, sent to China to improve diplomatic relations in the XIV-XV centuries. The article also analyzes the historical events associated with the Mongolian ruler Vaiskhan and the Chinese Emperor Yongle during the time of the Timurid ruler Shahrukh Mirza, as well as the political situation of Mongolia described in the "Book of Travels".

Key words: China, Tughluq Temur, Amir Temur, Shuhrukh Mirza, Vais Khan, Shermuhammad Khan, Ghiyaziddin Naqqosh, Amir Poladji.

G'iyosiddin Naqqoshning "Xitoy safarnomasi" kundaligi Temuriylar davlatining Xitoy bilan savdo-elchilik munosabatlar haqida so'zlovchi qimmatli manba hisoblanibgina qolmay, unda Mo'g'uliston (Sharqiy Turkiston) hududida o'sha zamonda yuz bergan siyosiy jarayonlar haqida ma'lumotlar ham bayon etilgan. Mo'g'uliston deb o'sha davrda Chig'atoy ulusining sharqiy hududlari (Yettisuv, Janubiy Sibir, Sharqiy Turkiston)ga aytilgan.

Chig'atoy ulusida 1348-yilda Amir Po'lodchi tomonidan Chig'atoy naslidan bo'lgan, 18 yoshli Tug'luq Temur, Duvaxonning nabirasi ya'ni, Duvaxonning ikkinchi o'g'li Emilxo'janing ikkinchi xotinidan tug'ilgan o'g'li sifatida e'lon qilindi va Mo'g'uliston xoni qilib ko'tarildi. Tug'luq Temur vafotidan (1363) so'ng, Amir Qamariddin hokimiyatni qo'lga oldi. Qamariddinning hukmronlik yillarida Mo'g'ulistonga Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida o'z hukmronligini o'rnatgan Amir Temur 7-marta (1371, 1375, 1376, 1377, 1383, 1388, 1389) qo'shin tortgan. Amir Qamariddin Amir Temur qo'shinlarining ta'qibi ostida bir qism navkari bilan shimolga qochib ketadi.

Taxtga Xizrxo'ja o'tirdi. Xizrxo'ja Temurning Eron va Iroq yurishlarida band bo'lganligidan foydalanib, Mo'g'ulistonda tartib o'rnatish va markaziy hukumatni mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi, keyinchalik (1397) u bilan qarindosh bo'lib (Temurga qizi Tuman og'o begimni bergan), o'z mamlakatining mustaqilligini saqlab qoldi. Xizrxo'ja vafotidan so'ng uning o'g'li Sham'i Jahon hokimiyatni qo'lga oldi (1399).

1408-yili Sham'i Jahon vafot etgach, taxtga ukasi Muhammadxon ko'tarildi. Muhammadxon davrida Movarounnahr qo'shinlari Qashqarni egallaganlar (1416). Muhammadxondan keyin taxtga o'tirgan Sham'i Jahonning o'g'li Naqshi Jahon Xitoy va Temuriylar saltanati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash yo'li bilan Mo'g'uliston birligini saqlab qolmoqchi bo'ldi. Lekin, u 1418-yil boshlarida Sheralining o'g'li Vaysxon tomonidan o'ldirildi. Vaysxon hukmronligi yillarida mulkdorlar orasida kurash yanada kuchayadi. Mulkdorlarning bir guruhi Vaysxon, yana bir guruhi Muhammadxonning o'g'li Shermuhammadxon atrofida

uyushgan edi. Bu kurashda Vaysxon va uning tarafdorlarining qo‘li baland keldi. Shermuhammadxon Samarqandga qochib ketadi va 1421-yil uning yordami bilan hokimiyatni Vaysxondan tortib oldi. Lekin oradan 3-4-yil o‘tgach, u Ulug‘bek hukumatiga bo‘ysunmay qo‘ydi. Natijada 1425-yil Ulug‘bek katta qo‘shin bilan Mo‘g‘ulistonga yurish qilib, hokimiyatni Vaysxonga topshirdi.

“Xitoy safarnomasi”da G‘iyosiddin Naqqosh: “822-yil 6-zulqa‘da / 1419-yil 24-noyabrda Hirotidan Shohrux Mirzo huzuridan Shodixo‘ja va Ko‘kcha boshchiligida, Boysung‘ur Mirzo huzuridan Sulton Ahmad va Xoja G‘iyosiddin Naqqosh boshchiligida elchilar karvoni Xitoyga yo‘l olgani va ushbu elchilik missiyasi 825-yil 15-ramazon / 1422-yil 29-avgustda Hirotga qaytgani” – qayd etilgan. [Бўриев 2017: 19].

G‘iyosiddin Naqqosh o‘z kundaligida Mo‘g‘ulistondagi 1420-1422- yillarda yuz bergan siyosiy voqealilar va siyosiy ma‘muriy vaziyat haqida ma‘lumotlarni yozib qoldirgan. Unda Mo‘g‘uliston xoni Vaysxon va Shermuhammad o‘g‘lon xonlik uchun kurashi, yirik mo‘g‘ul amirlaridan Amir Qulmuhammad, Amir Xudoydod, Muhammadbek, Sher Bahrom, Mengli Temur, Amir Faxriddin kabilarning hokimiyat uchun kurashlari va amirlar boshqaruvidagi shahar va hududlar haqida ma‘lumotlarni qayd etadi. Bu to‘g‘risida G‘iyosiddin Naqqosh quyidagicha bayon etgan: “Elchilar 1419-yil 27-dekabrda Hirotidan Balxga keladilar u yerdan Kelif kechuvidan o‘tib, 1420-yil 7-fevralda Samarqandda Ulug‘bek Mirzo huzurida bo‘ladilar. Mirzo Ulug‘bek o‘z elchilari Sultonshoh va Muhammad Baxshilarni yurtiga qaytib ketayotgan bir guruh xitoyliklar bilan oldinroq jo‘natganini qayd etadi. Samarqandga Mirzo Suyurg‘atmishning elchisi Urg‘udoq, amir Shohmalikning elchisi Urduvon, Badaxshon shohining elchisi xoja Tojiddin ham yig‘iladilar. 1420-yil 25-fevralda elchilar Xitoy elchilari bilan birgalikda Samarqanddan Xitoyga yo‘l oladilar. Elchilar Toshkent, Sayrom, Ashparadan o‘tib, 1420-yil 5-mayda Mo‘g‘ul eliga (Mo‘g‘ulistonga) qadam qo‘yadilar. Elchilarga Mo‘g‘uliston xoni Vaysxon Shermuhammad o‘g‘longa qasd qilib, uni qatl etmoqchi bo‘lganligi va shu sababdan, Qulmuhammad va yana ba‘zi bir mo‘g‘ul amirlari Vaysxondan yuz o‘g‘irganlari,

ularni qo‘llab butun ulus oyoqqa turganligi haqida xabar yetdi. Elchilar xavotirga tushib yo‘lga otlandilar. Shundan so‘ng, yana fitna taskin topganligi va amirlar Vaysxon bilan sulh tuzganliklari xabari keldi. U diyorning sohib ixtiyori bo‘lgan amir Xudoydod elchilar qoshiga kelib ularni yupantirdi va Vaysxon huzuriga jo‘nab ketdi. Elchilar taskin topib safarlarini davom ettirdilar va 1420-yil 31-mayda Muhammadbekka tegishli bo‘lgan Bilg‘utu degan mavzega yetdilar. Bilg‘utudan ko‘chib, Kungir suvidan o‘tib, 1420-yil 5- iyunda ulus hokimi Muhammadbek bilan uchrashdilar. Muhammadbekning o‘g‘li Sulton Shodi ko‘ragon Shoh Jahon (Shami Jahon)ning kuyovi edi va uning xotini ulug‘ amirzoda Muhammad Jo‘gi bahodirning xotinining singlisi bo‘lardi.

Elchilar 1420-yil 8-iyunda Yulduoz yaylovi va o‘lkasiga kirdilar, u yerdan o‘tib Sher Bahromning eliga yetdilar. Sher Bahromning o‘g‘li shu yerda edi. 1420-yil 20-iyunda Muhammadbekning o‘g‘illari Vaysxonning elchisi bo‘lmish dojni talaganliklari haqida xabar keldi. Dojilar va elchilar bundan vahimaga tushib, “biz shoshilishimiz kerak, toki tezroq Xitoy chegarasiga yetib olaylik”, deb aksar kunlari yomg‘ir va do‘l yog‘ib turganligiga qaramay, darayu tog‘lardan sur‘at bilan o‘tdilar va Turfon shahriga yetdilar. Elchilar 1420-yil 16-iyulda Qoraxojaga yetadilar. 1420-yil 30-iyulda esa So‘fi Ato degan joyga kelib tushadilar. Termiz sayyidlaridan biri bo‘lmish xonzoda Tojiddin shu yerda langar qurib olgan va muqim yashar edi. U Qumul musulmonlarining hokimi amir Faxriddinga kuyov edi. 1420-yil 1-avgustda elchilar Qumul shahriga yetib keldilar. Bu shaharda amir Faxriddin bir oliy masjid qurgan edi.” [Бўриев 2017: 9-13].

Elchilik ikki yil, o‘n oyu besh kun davom etgan. Boysung‘ur Mirzo G‘iyosiddin Naqqoshni Xitoyga yuborar ekan, unga maxsus topshiriq beradi. Topshiriqda Naqqoshga Xitoyga borguniga qadar bo‘lgan hamda Xitoydagi barcha ko‘rgan kechirganlarini o‘z kundaligiga yozib borish buyurilgan edi. Shunga ko‘ra Naqqosh Xitoy daryolarini, shaharlarini, ularning tuzilishi, yo‘llarini, yomlarni, shaharlar aholisi, ularning urf-odatlarini, dini, kiyim-kechagi, hunarmandchiligi, savdosi, bozori,

Xitoy podshohi va ayonlari haqida barcha ma'lumotlarini kundaligiga qayd etib boradi.

G'iyosiddin Naqqosh Xitoy poytaxti Xonbaliqqa yetgunicha, barcha shaharlarda elchilar kutib olinib, ro'yxatdan o'tkazilgani, va ularning sharafiga to'y berilganini yozadi. Qiziqarli ma'lumotlardan biri, Xonbaliqqa yaqinlashgan elchilarning olib kelayotgan sovg'a-salomlari xitoylik ma'murlar xodimlari tomonidan olinib, elchilar bilan birga sovg'alarni podshoh huzuriga olib borishadi. Faqat Boysung'ur Mirzoning Xitoy imperatoriga yuborgan sherinagina sherbon Pahlavon Salohiddinning o'zi podshoh dargohiga yetkazgani qayd etiladi. Xitoy podshohi Shohrux Mirzo elchilaridan Temuriylar saltanatida g'allaning qimmat yoki arzonligi hamda Qora Yusufning Shohrux Mirzo bilan munosabatlari haqida qiziqadi.

“Hijriy 825-yil 15-muharram, juma kuni (1422-yil 9-yanvarda) elchilar Xitoy Qoravulidan tashqari chiqdilar. Ular Mo'g'ulstondagi notinchlik qo'rquvidan cho'l yo'lini ixtiyor qildilar va 8- rabiul-avvalda (1422-yil 2-martda) cho'ldan o'tib, Xo'tan tomonlardan xavotirda ekanliklari sababli, bir necha kun o'sha sahrolarda kezib, mazkur yilning jumodil-oxir oyining to'qqizinchisida (1422-yil 31-mayda) Xo'tan shahriga yetdilar. U yerdan ko'chib, oltinchi rajabda (1422-yil 26-iyunda) Qoshg'arga kelib tushdilar va 21-rajabda (1422-yil 11-iyulda) Andigon dovonidan o'tdilar”.

Xulosa qilib aytganda, Mavlono G'iyosiddin Naqqoshning “Xitoy safarnoma”si Temuriylar tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanib, unda bayon etilgan ma'lumotlar asosida, biz o'sha davrda Temuriylar mamlakati, Xitoy hamda Mo'g'ulistonda yuz bergan tarixiy jarayonlar, o'sha davr ma'muriy boshqaruvi, savdo-elchilik munosabatlari, hokimiyat uchun kechgan kurashlar to'g'risida real voqeliklarni o'rganamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI \ СПИСОК**ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ \ LIST OF USED LITERATURE:**

1. G‘iyosiddin Naqqosh. Xitoy safarnomasi kundaligi. Fors tilidan tarjimon: Bo‘riyev.O – Toshkent. 2017. – 52.b.
2. Hazratqulov.J., Bekjonov.I. Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar, – Toshkent, O‘zbekiston. 2013. – 400 b.
3. O‘rinboyev.A. Abdurazzoq Samarqandiy, Matla us-sa‘dayn Toshkent,O‘zbekiston. 2008. – 849b.
4. Жумаев. Ф.И. Ҳабиб ус-сияр ва Матла ус-саъдайн асарларида дипломатик ва элчилик муносабатларининг акс эттирилиши. Шарқшунослик. –Тошкент. 2022.
5. Каримова Н. Темурийлар билан Хитой алоқалари.(хитой манбалари асосида). // Шарқшунослик .-Тошкент,1996.№7.
6. Буриев А. Дневник путешествия Гиас ад-Дина наккаша как исторический источник ж. Общественные науки в Узбекистане. 11.- Ташкент, 1986.
7. Буриев О. Амир Темур даврида Мовароуннаҳр ва Мўғулистон муносабатлари. // Шарқшунослик .-Тошкент,1996.№7.
8. Jumayev G‘.I. TEMURIYLAR IMPERIYASINING XITTOY BILAN SAVDO-ELCHILIK MUNOSABATLARI. “Uzbekistan-China: development of historical, cultural, scientific and economic relations” VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 21 ISSN 2181-1784 SJIF 2023: 6.131. – P 726-731